

## **TABIIY GAZ ETKAZIB BERISH VA QABUL OILISH**

36 - sonli SHARTNOMASI

«25»yanvar 2022 yil

## Peshko' tuman

**Peshko' tuman**  
Peshku tuman davlat solik inspeksiyasi (bundan bo'yon «Iste'molchi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi raxbari A.Kamolov bir tomondan "HUDUDGAZTA'MINOT" AJ (bundan bo'yon «Ta'minotchi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **F.Xaydarov** tomondan Ushbu shartnomani kuyidagilar haqida tuzdilar.

## Shartnomaning predmeti

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha «**Iste'molchi**»ning buyurtmanomasiga muvofiq tarmoqlar orqali tabiiy gaz yetkazib berishni «**Ta'minotchi**» o'z zimmasiga oladi. «**Iste'molchi**» esa mazkur shartnomani

1.3. bandida belgilangan tabiiy gaz hajmini qabul qilib olish va belgilangan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. «Ta'minotchi» tabiiy gaz yetkazib berishni faqat «Iste'molchi»da gaz o'lhash asboblari mavjud bo'lgan holatda amalga oshiradi.

1.3. «**Iste'molchi**»ning buyurtmanomasiga asosan 2022 yil yetkazib beriladigan tabiiy gazning hajmi kub 4 545.metrni, narhi, **660 R= kgs/sm<sup>2</sup> 2 999 700** so‘mni tashkil qiladi\*, shundan budget mablag‘lari hisobidan **2 999 700 (ikki million to‘qqiz yuz to‘qson toqqiz ming yeti yuz) so‘m** shu jumladan choraklar bo‘yicha:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining **05.02.2004** yildagi **57-son** Karori, **24.12.2008** yildagi **277-sonli** karorida kursatilgan iste'molchilar bundan mustasnodir.

1

- 1 chorak 4 545 kub.m.

oy (yil)	summa	kub.m.	jami
Yanvar	660	1515	999 900
Fevral	660	1515	999 900
Mart	660	1515	999 900

- 2 chorak kub.m.

oy (yil)	summa	kub.m.	jami

oy (yil)	summa	kub.m.	jami

oy (yil)	summa	kub.m.	jamı

\* Изох: Бюджет маблағлари бүйича йиллик харажатлар сметаси тегишли молия органларыда рўйхатдан ўтказилгунга кадар, вактнинчалик харажатлар сметаларида белгиланган маблағлар доирасидаги сумма ва микрорлар кўрсатилиши

- 1.4. «**Iste'molchi**» oyma-oy buyurtmanoma bermagan holatda, tabiiy gaz hajmi «**Ta'minotchi**» tomondan chorakka ajratilgan gaz hajmini oyma-oy bir xil taqsimlaydi.

1.5. Tabiiy gazni uzlusiz yetkazib berish maqsadida «**Ta'minotchi**» tomonidan iste'mol qilingan oylik gaz hajmi 100 ming.kub.m.dan ortiq «**Iste'molchi**»lar uchun, oylik gaz hajmidan kelib chiqib o'rtacha kunlik va o'rtacha soatlik gaz hajmi hisoblab chiqiladi.

1.6. Ushbu shartnomaning 1.3. va 1.4. bandlariga o'zgartirish, iste'molchining taklifi bilan mo'ljallanayotgan o'zgartirishlardan kamida 10 kun oldin navbatdagi oy (yil choragi) uchun buyurtma berilgan gaz hajmlari bo'yicha shartnomalarga kiritilgan o'zgartirishlar ortiqcha olish deb hisoblanmaydi. oy boshlanishiga 10 kun qolguncha, tomonlarning kelishuviga asosan belgilangan tartibda kiritish mumkin. Lekin ushbu o'zgartirishlar 1 oylik gaz miqdori uchun 30% dan kam bulmagan foizda oldindan to'lov o'tkazilganda amal qiladi. (Budget tashkilotlari uchun kamida 15 foiz miqdorida oldindan to'lov o'tkazilganda amal qiladi.)

## **2. TARAFLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI.**

2.1. «**Ta'minotchi**» 1.3. bandda ko'rsatilgan hajmda «**Iste'molchi**»ga tabiiy gaz yetkazib beradi va yetkazib berilgan gaz uchun hisob-kitob normal kub.m.da (GOST 5542-87, 1,1-bandi. T=20°C, R=760 mm simob ustuni,)da hisoblanadi.

2.2. «**Iste'molchi**» oy mobaynida bir maromda, gaz iste'molining o'rtacha kunlik me'yori chegarasida, hamda ushbu shartnomaning 1.3. va 1.4. bandlarida ko'rsatilgan hajmda «**Ta'minotchi**» dan tabiiy gaz qabul qilib oladi. Shuningdek, tabiiy gaz yetkazib berilganligi va qabul qilinganligi to'g'risida oy oxirida tuzilgan dalolatnomaga imzo qo'yadi.

2.3. Gaz hajmlari to'g'risida hisobot oyida topshirilgan va qabul qilingan hujjatlar «**Iste'molchi**»ning gaz hisoblagichi bo'yicha aniqlangan:

- «**Ta'minotchi**» bilan «**Iste'molchi**» o'rtasida gaz yetkazib berish va qabul qilish haqida tuzilgan texnik dalolatnomalarda aks ettirilgan ma'lumotlarga;
- Tuzatish kirituvchi (blok korreksiya)siz gaz hisoblagichilar bo'yicha ushbu rusumli gaz hisoblagichilar uchun iste'molchi tomonidan yuritilgan qayd daftarlari (jurnallar) bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga;
- Tuzatish kirituvchi elektron blokli hisoblagichilar bo'yicha hisobot davri uchun chiqarilgan arxiv ma'lumotlari (raspechatka) larga asosan aniqlanadi.

«**Iste'molchi**» balansida bo'lgan gaz quvurlaridagi va GTM dagi gazning yo'qolgan hajmi «**Iste'molchi**» hisobiga qarashli bo'ladi.

2.4. «**Iste'molchi**» ga berilgan gaz hajmi O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi gaz hisoblash qoidalariga muvofiq ravishda o'rnatilgan nazorat-o'lchov asboblari, soz holatdagi hisoblagichilar va gaz sarfini o'lchovchi moslamalar ko'rsatgichlari bo'yicha hisoblanadi.

«**Iste'molchi**» gaz hisoblagichlarning soz holatda bo'lishi, hamda ularni o'z vaqtida ta'mirlanishi va davriy tekshiruvdan o'tkazilishi uchun javob beradi. Gaz hisoblagichi tuzatish kirituvchi (blok korreksiya)siz bo'lgan iste'molchilar kundalik gaz sarfini yozuvchi daftartutishlari va kundalik foydalanilgan gaz sarfi yozib borilishi kerak.

2.5. Agarda tabiiy gaz Shartnomada ko'rsatilgan miqdordan kam miqdorda yetkazib berilsa, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuniga binoan **Ta'minotchiga** nisbatan **Iste'molchi** foydasiga jarima sanksiyalarini qo'llaniladi.

Quyidagi holatlardan tashqari:

- avariya vaziyatlarida, tabiiy ofatlarda; qish mavsumida gaz tanqisligi sababli, joylardagi hokimliklar tomonidan tasdiqlangan, iste'molchilarga gaz yetkazib berish vaqtincha chegaralanganida; (Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 05.02.2004 yildagi 57-son Karori, 24.12.2008 yildagi 277-sonli karorida kursatilgan iste'molchilar bundan mustasnodir)

- «**Iste'molchi**» tomonidan gaz iste'mol qiluvchi uskunalar va gaz hisoblash tarmoqlaridan foydalanish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar buzilganida, foydalanilgan gaz haqi to'lanmagan taqdirda hisob-kitob ishlari, mazkur shartnomaning 2.7., 2.14. – bandlariga asosan amalga oshiriladi

2.6. «**Iste'molchi**» ushbu shartnomaning 6.4 va 6.5. bandida ko'rsatilgan jarima sanksiyalarini olgan kundan boshlab 10 kun ichida to'lojni amalga oshirmasa, «**Ta'minotchi**» oldindan ogohlantirmay turib, gaz ta'minotini to'xtatib qo'yishga haqlidir.

2.7. Iste'molchi tomonidan tuzilgan shartnomada belgilangandan ortik xajmda va gaz yetkazib beruvchi bilan oldindan kelishmasdan gaz olgan takdirda gaz iste'molchisidan kuyidagi mikdorda:

- iste'molchi uchun shartnoma xajmlaridan ortikcha olingan gaz kiymati 2 koefitsent bilan oshirma tulov undiriladi. (Uzb.Resp. V.M.ning 132-son karori asosan)

2.8. «**Iste'molchi»da** zahira yoqilg'isini yoqish tizimi bo'lishi, zahirani isitish mavsumi boshlanishidan oldin to'ldirib qo'yishi va kuzgi-qishki davrda yoki gaz tanqisligida, avariya holatlarida korxonaning bir maromda ishlashi uchun zahira yoqilg'isini jamlab qo'yishi kerak.

«**Iste'molchilarning**» 20 Gkal/soat.dan yuqori quvvatli qozonxona qurilmalari gaz yoqilg'isi yetkazib berishdagagi uzilishlarni hisobga olgan holda, 2 oydan kam bo'limgan davr mobaynida yoqishiga mo'ljallangan zahira yoqilg'isi xo'jaligiga (SniP -2-35-76) ega bo'lishi, «**Iste'molchilarning**» 20 Gkal/soat. dan kam quvvatli, 1-toifaga kiruvchi qozonxona qurilmalari avariya yoqilg'isiga ega bo'lishi kerak.

2.9. «**Iste'molchilar**» shartnomaga muvofiq ravishda belgilangan muddatlarda gazdan foydalanishni to'xtatadilar hamda ikki tomonlama dalolatnoma tuzib, gaz ta'minotining qurilmalarining o'chiriladigan qismlarini tamg'lash yoki payvandlash yo'li bilan gaz tarmog'idan uchirish uchun «**Ta'minotchi**» o'z vakilini yuboradi.

2.10. «**Iste'molchi**» gaz hisobini oluvchi xo'jalik hisobidagi gaz o'lchash tarmoqlari (uzellari) va hisoblagichlarini o'rnatish, ulardan foydalanish va tekshiruvdan o'tkazish GOST 8.563-97 talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlaydi.

2.11. Gaz iste'mol qiluvchi jihozlar, GTP (gaz taqsimlash punkti) va gaz hisoblagichlarning sozligi va talab darajasida saqlanishi, hamda ularni o'z vaqtida tekshiruvdan o'tkazish uchun «**Iste'molchi**» korxona rahbarlari javobgardirlar.

2.12. «**Iste'molchi**»ning xo'jalik xisobidagi hisoblash uskunasi hisoblash xatoligi GOST 8.563-97 normalariga muvofiq bo'lgan gaz hisoblash tarmog'i hisob-kitob uchun yaroqli deb hisoblanadi.

2.13. Agarda, «**Istemolchi»dagi** gaz hisoblagich moslamasi O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi gaz hisoblash qoidalari mos kelmasa, «**Iste'molchi**»dagi asosiy gazni xisobga olish priborlari nosoz bulganda va ular gaz yetkazib beruvchida mavjud bulmaganda xududiy gaz ta'minoti korxonasi tomonidan yetkazib berilgan gaz miqdori tamg'alanmagan uskunalarining loyihadagi quvvati va gaz sarfini hisobga olish priborlari: nosoz bulgan vaqtida shartnomada nazarda tutilgan boshqa usul bilan aniqlanadi (O'z.R VM 08.01.2004y. 9-Qarori tahriridagi band) ya'ni, «**Iste'molchi**» tomonidan foydalanilgan tabiiy gaz uchun hisob-kitob «**Ta'minotchi**» tomonidan tamg'alanmagan barcha gaz iste'mol qiluvchi qurilmalarning eng yuqori gaz sarfi quvvatida, kuniga 24 soat ish tartibida hisoblanadi. Ushbu hisob-kitob «**Iste'molchi**»dagi gaz hisoblash moslamasi GOST 8.563-97 va O'zbekiston Respublikasining shu turdagи gaz hisoblagichlar uchun boshqa GOSTlarga mos holga keltirilguniga qadar amal qiladi. «**Iste'molchi**» bunga norozilik bildirsa, kamchiliklar bartaraf qilingunga qadar «**Ta'minotchi**» uni gaz ta'minotidan butunlay uzib qo'yishga haqlidir (Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 05.02.2004 yildagi 57-son Karori, 24.12.2008 yildagi 277-sonli karorida kursatilgan iste'molchilar bundan mustasnodir).

2.14. «**Iste'molchi**» o'z hisoblagich xotirasidan muntazam ravishda har oy tuzatish kirituvchi (blok korreksiya) dan olingan arxiv ma'lumotlarini yoki kundalik foydalanilgan gaz sarfini yozuvchi daftari bilan tasdiqlangan hisoblagich ko'rsatkichlarini «**Ta'minotchi»ga** hisobot oyi tugashi bilan taqdim qilishi shart.

Elektron gaz o'lchagich ko'rsatkichlari arxiv ma'lumotlari (raspechatka) «**Iste'molchi**» tomonidan da'vo muddati mobaynida ya'ni, 3 yil saqlanishi shart. (Uz.R. FK. 150-modda)

2.15. «**Ta'minotchi**» vakili xar oyda «**Iste'molchi**» bilan birqalikda gaz bosimiga va haroratiga «**Ta'minotchi**» sifat laborotoriyasi tomonidan berilgan tuzatishlarni elektron hisoblagich ko'rsatmalari bo'yicha kiritishlari kerak.

2.16. Gaz hisoblagich yordamida gaz hisoblash moslamasidan foydalanganda «**Iste'molchi**» quyidagi talablarga rioya qilishi shart:

- gaz bosimi va gaz hisoblagichning hisobga oluvchi qismi atrofidagi havoning harorati hisoblagichni ishlab chiqargan korxona-zavodning hisoblagichni ishlatish talablariga mos kelishi kerak;

- gaz hisoblagichdagi ishchi bosim iste'molchining GTP (gaz taqsimlash punkti)ning soz holatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnomani «**Iste'molchi**» «**Ta'minotchi»ga** taqdim qilinadi;

- gaz hisoblagichdan foydalanish jarayonida «**Iste'molchi**» uning hisoblash mexanizmi va tuzatish kirituvchi (blok korreksiyasini)ni shikastlanishdan ehtiyyot qilish;

- gaz hisoblagichni ishlatalishda hisoblagich pasportida qayd qilingan talablar bajarilishi;
- Gaz hisoblagich quyidagi talablarga javob berishi:
  - gaz hisoblagichning ko‘rish joylarida hisoblash mexanizmidagi ko‘rsatkichlarni to‘sinqiniksiz olinishi, hamda shikastlangan joylar va kamchiliklar (defektlar) bo‘lmashligi;
  - ishlab chiqaruvchi korxona-zavod va «O’zdavstandart» tamg‘alari saqlangan, but bo‘lishi;
  - hisoblash tarmog‘i va impuls yo‘llarida gaz sizib chiqish holatlari bo‘lmashligi;
  - gaz hisoblagichda ishlab chiqargan korxonaning tovar belgisi, gaz hisoblagich rusumi, raqami, uning aniqlik darajasi va ishlab chiqilgan yili ko‘rstilganligi;
  - gaz hisoblagich korpusida gaz oqimini ko‘rsatib turuvchi yoy (strelka) bo‘lishi;
  - gaz hisoblagich shovqinsiz ishlashi shart.

Agarda gaz hisoblagich yuqoridagi talablardan biriga javob bermasa, hisoblagich foydalanishga yaroqsiz deb hisoblanadi va aniqlangan kamchiliklar **«Iste’molchi»** tomonidan bartaraf etilmaguniga qadar hisoblash tarmog‘i yaroqsiz deb hisoblanadi va foydalanilgan tabiiy gaz uchun hisob-kitob ishlari mazkur shartnomaning 2.14. asosan amalga oshiriladi.

2.17. **«Iste’molchi»** **«Ta’minotchi»** vakiliga, xafthaning istalgan vaqtida oyiga kamida 4 marotabadan kam bulmagan lekin, 10 martadan ko‘p bo‘limgan miqdorda gaz hisoblash asboblari va gaz ishlatuvchi uskunalarini hech qanday to‘sinqiniksiz kirib ko‘rishi uchun sharoit yaratib berishi shart. **«Iste’molchi»** tashabbusi bilan **«Ta’minotchi»** vakilini taklif qilif qilish holatlari bundan mustasno.

Agarda, **«Ta’minotchi»** vakili gaz uskunalarini va gaz hisoblash asboblarini tekshirish uchun **«Iste’molchi»** hududiga kiritilmasa, **«Iste’molchi»** tomonidan foydalanilgan gaz sarfi uchun hisob-kitob, mazkur shartnomaning 2.13 bandiga asosan amalga oshiriladi, **«Ta’minotchi»** vakilining oxirgi marta kelgan paytidan boshlab amalga oshiriladi. Eslatma:

**«Iste’molchi»** ning gaz uskunalarini va gaz hisoblash asboblarini tekshirish uchun kiritilmaganligi to‘g‘risida **«Ta’minotchi»** vakili tomonidan dalolatnomaga rasmiylashtirilganligi asos bo‘lib hisoblanadi.

Agarda **«Iste’molchi»** **«Ta’minotchi»** vakilining hududiga kiritilmaganligi to‘g‘risida yoki gaz hisoblash moslamasi, tijorat hisoblagich sifatida tan olinmaganligi to‘g‘risida tuzilgan dalolatnomaga imzo qo‘yishdan bosh tortsa, **«Ta’minotchi»** dalolatnomani bir tomonlama tartibda tuzadi. Bunda, gaz hisoblash moslamasini tekshirish paytida ishtirok etgan **«Iste’molchi»** vakilining ismi, sharifi va mansabi hamda “iste’mol”chining manzili ko‘rsatiladi.

Agarda **“Iste’molchi”** dalolatnomaga imzo kuyishda bosh tortsa unda, **“Ta’minotchi”** tomonidan uch kishidan kam bulmagan shaxslar ishtirokida tuzilgan dalolatnomaga haqiqiy deb hisoblanadi.

2.18. Gaz hisoblash vositalari ishdan chiqsa yoki yaroqsiz holga kelib qolsa, **«Iste’molchi»** bu haqida **«Ta’minotchi»ni** zudlik bilan xabardor qilishi kerak. Agarda, ayrim gaz uskunalarini ishlamayotgan bo‘lsa, ularni tamg‘alash uchun **«Ta’minotchi»ni** xabardor qilishi kerak.

2.19. Gaz uskunalarini qayta ta’mirlash bilan bog‘liq holda gaz sarfi hisob-kitobi o‘zgarganida **«Iste’molchi»** **«Ta’minotchi»ga** gaz asboblarini o‘zgartirish uchun texnik shart yoki ruxsatnomasi, **«Sanoatkontexnazorat»** va **«O’zdavneftgaznazorat»** inspeksiyalari tomonidan berilgan ruxsatnomalarni taqdim qilishi shart. Shundan so‘ng shartnomaga o‘zgartirishlar kiritiladi.

2.20. Gaz hisoblash punkti ishdan chiqqanida **«Iste’molchi»** **«Ta’minotchi»** vakilini 1 sutka davomida xabardor qilib, gaz hisoblash pribori ko‘rsatkichini qayd qilish to‘g‘risida tegishli dalolatnomaga tuzilganida, gaz quvuri tizimi orqali gazdan foydalanishga ruxsat etiladi. Bunday paytda **«Iste’molchi»** gaz hisoblash tarmog‘ini ta’mirlash uchun tezkor chora ko‘rishi shart. **«Ta’minotchi»** tomonidan gaz hisoblash uskunasi o‘rnatilgunga qadar foydalanilgan gaz sarfi uchun hisob-kitob mazkur shartnomaning 2.13.-bandiga asosan amalga oshiriladi.

2.21. Gaz hisoblagich, tijorat hisoblagichni bir maromda ishlashi uchun **«Iste’molchi»**, yozgi va qishki davrda gaz iste’mol qilish xajmiga qarab toraytirish uskunalarini almashtirish va gaz o‘lchash asboblarini o‘z vaqtida talab darajasida bulishini ta’minlab borishi shart.

2.22. Gaz hisoblash asboblari sarflanayotgan gaz miqdoriga mos bo‘lishi kerak. Gaz hisoblash moslamalarining texnik xarakteristikasida ko‘rsatilgan chegaradan kam miqdorda gaz sarflansa, gaz miqdorining hisobi va gaz sarfi, gaz o‘lchov moslamasini texnik xarakteristikasining pastki chegarasi bo‘yicha olinadi bunda, **“Iste’molchi”** 15 kun muddat ichida gaz yoqish uskunalariga mos gaz hisoblagich moslamalarini o‘rnatish majburiyatini oladi.

Gaz hisoblagich moslamalari, gaz sarfini xisoblashda tarmoqning xatolik darajasi 1,5% dan yuqori bo‘lsa, gaz sarfi hisob – kitobi gaz hisoblash pribori shkalasining xatoligi 1,5% dan yuqori bo‘limgan foizi bo‘yicha amalga oshiriladi. Ruxsat etilgan maksimal chegaradan yuqori miqdorda gaz sarflansa, gaz hisobi

o'rnatilgan va tamgalanmagan gaz uskunalarining gaz sarfi mazkur shartnomaning 2.13. bandiga asosan hisoblanadi.

2.23 «Ta'minotchi» tomonidan “**Iste'molchi**”ning xujalik xisobida bo'lgan gaz xisoblagich moslamalarini ko'rildganda, gaz hisoblash moslamasi bir maromda ishlamayotganligi, taqqoslov tekshiruvi (xronometraj) o'tkazilganda, tashqaridan gaz hisoblash moslamalariga ta'sir ko'rsatilganda va boshqa hollarda, gaz hisoblash moslamalarini joylardagi «O'zdavstandart» boshqarmalarida ekspertizadan o'tkazishni va nazorat-o'lchov asboblarini navbatdan tashqari tekshiruvdan o'tkazishni talab qilishga haqli.

Agarda, gaz hisoblash asboblari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazish uchun to'lov, gaz hisoblash asbobi egasi tomonidan amalga oshiriladi.

Gaz hisoblash asboblari soz holatda bo'lsa, ekspertizadan o'tkazish uchun sarflangan xarajatlar, ekspertizadan o'tkazishni talab qilgan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

2.24 “Iste'molchi” tomonidan gaz tarmoqlariga uzboshimchalik bilan ulangan xollarda urnatilgan gaz yoqish uskunalarining sarflangan tabiiy gaz uchun xisob-kitob ulangan vaqtidan boshlab 10 baravari qiymatida undiriladi va gaz tarmog'idan (qurilmalaridan) majburiy tarzda uzib qo'yiladi. (Uz.R. VM 09.03.1994y. 124-son Qarori 1.2 b.)

2.25 Quyidagi hollarda «**Iste'molchi**» tomonidan foydalanilgan tabiiy gaz uchun hisob-kitob «**Ta'minotchi**» vakilining oxirgi marta kelgan paytdan boshlab, tamgalanmagan barcha gaz iste'mol qiluvchi gaz uskunalarining loyihamiy yukori quvvatidan kelib chiqib, mazkur shartnomaning 2.13.-bandiga asosan amalga oshiriladi:

a) gaz hisoblash asboblari nosoz bo'lsa yoki gaz sarfini toraytiruvchi moslamalar bilan o'lchashda GOST 8.563-97. qoidalari buzilsa;

b) sarf o'lchagichlar, toraytiruvchi moslamalar, gaz hisoblagichlarning Davlat ko'rigidan o'tgan muddati va gaz hisoblash tarmog'iga (uzeliga) berilgan guvoxnomalari (sertifikatlar) muddati tugaganidan keyin;

v) gaz xisoblagichlarni Davlat ko'rigidan o'tkazish uchun yechib olingan kundan boshlab, qayta o'rnatilgan kungacha bo'lgan muddatlarda;

g) «**Ta'minotchi**» vakili tomonidan «**Iste'molchi**» xujalik xisobida bulgan gaz hisoblash moslamalarining baypas yo'llarida, impuls yo'llarida, toraytiruvchi moslamalar kameralarida va sarf o'lchagichlarning sozlovchi murvati (ventili)da gaz sizib chiqish holati aniqlanganida;

d) «**Iste'molchi**» tomonidan gaz sarfi o'lchaydigan elektron gaz hisoblagichlardan olinadigan ma'lumotlar yo'qotilgan bo'lsa;

e) nazorat-o'lchov kompleksining tuzatish kirituvchi bloki ishlamay qolganida, mexanik ravishda o'lchovchi moslamalar mavjud bo'lmasa yoki to'xtab qolgan bo'lsa;

j) «**Ta'minotchi**» vakili oxirgi marta kelgan paytdan boshlab, «**Ta'minotchi**» tomonidan gaz iste'mol qiluvchi agregatlarga, gaz hisoblash priborlariga o'rnatilgan tarmoq'alar uzelganida.

«**Iste'molchi**» o'rnatilgan tamgalarni o'zboshimcha ravishda uzganlik to'g'risida tuzilgan dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortgan taqdirda ham, javobgarlik uning zimmasida qoladi.

2.26. Mazkur shartnomaning 2.3. bandiga muvofiq, sarflangan gazni gaz hisoblagich bo'yicha hisoblaganda quyidagilar inobatga olinadi:

a) termometrlar va manometrlarning soz holatda ekanligi va ularning davlat tekshiruvidan o'tgan amal qilish muddati;

b) GTM (GRP) sozlanganligi muddati, shuningdek amaldagi ishchi bosimning GTM (GRP) sozlanganligi to'g'risida tuzilgan dalolatnomaga mosligi;

v) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan 19-03-22-05 RUZ reyestrida ko'rsatilgan besh oy isitish mavsumida hisoblanadi.

“**Iste'molchi**” tabiiy gazdan foydalanishda O'zbekiston Respublikasining gaz xujaligidagi xavfsizlik qoidalari bo'zsa unda, Rizb=  $1\text{kg/sm}^2$  koeffitsiyenti qo'llanadi.

2.27. “Ta'minotchi” qish mavsumida gaz tanqis bo'lgan davrda «**Iste'molchi**»ga tabiiy gazni uzuksiz yetkazib berishni kafolatlamaydi (joylardagi Hokimliklar tomonidan tasdiqlangan, gaz ta'minoti tarmog'idan o'chirilmaydigan ro'yxatga kiritilgan iste'molchilar va Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 05.02.2004 yildagi 57-son Karori, 24.12.2008 yildagi 277-sonli karorida kursatilgan iste'molchilar bundan mustasnodir).

2.28. Gaz ta'minoti tarmog'i chegarasidan keyin «**Iste'molchi**» balansidagi mavjud gaz quvurlari, undagi qurilmalar va gaz iste'mol qiluvchi jihozlarni soz holatda saqlash, hamda ulardan xavfsiz foydalanish uchun javobgarlik «O'zbekiston Respublikasi gaz xo'jaligi xavfsizlik qoidalari»ga (O'zb.R

Adliya vazirligi tomonidan ko'rib chikilgan, "Sanoatkontexnazorat"ning 2004 yil 6 fevraldagagi 10-son buyrug'i bilan tasdiqlangan) binoan «**Iste'molchi**» zimmasiga yuklatiladi.

Gaz quvuri boshlanadigan joydagi taqsimlovchi zulfin yoki jo'mrak, agarda u «**Iste'molchi**» korxonasi (ob'ekti) hududi (to'sig'i)ning tashqarisida joylashgan bo'lsa, ulgurji iste'molchilar uchun gaz tarmog'ining bo'linadigan chegarasi bo'lib hisoblanadi. Agarda gaz tarmog'ining bo'linadigan chegarasida zulfin yoki jo'mrak mavjud bo'lmasa, u holda korxona (ob'ekt) hududining to'sig'i (devori) gaz tarmog'ining bo'linadigan chegarasi bo'lib hisoblanadi.

### **3.TABIY GAZ NARHI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI.**

3.1. Foydalanilgan tabiy gaz uchun hisob-kitob O'z.R. Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan R.Uz.19-03-22-05-son reyestriga asosan amalga oshiriladi.

3.2. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 05.02.2004 yildagi 57-son Karori, 24.12.2008 yildagi 277-sonli karorida kursatilgan iste'molchilari ya'ni «**Iste'molchi**» hisob-kitob oyi boshlanishidan kamida 5 kun oldin «**Ta'minotchi**» hisob raqamiga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgandek oylik gaz hajmi qiymatining kamida 30 foizi uchun oldindan haq to'lashi shart.

Budget tashkiloti hisob-kitob oyi boshlanishidan kamida 5 kun oldin tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan iste'mol qilinadigan gaz hajmi qiymatining kamida 15 foizi miqdorida oldindan haq to'lashi shart.

Xususiy korxonalar, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar hisob-kitob oyi boshlanishidan kamida 5 kun oldin berilgan buyurtmaga asosan oldindan 30 foiz to'lov o'tkazishlari shart.

Oldindan to'lov amalga oshirmagan taqdirda «**Iste'molchi**»ga gaz berish to'xtatiladi.

3.3. Yakuniy hisob-kitob bir oyda berilgan va qabul qilingan gaz miqdoriga muvofiq ravishda kelgusi oyning 10 kunigacha amalga oshiriladi (Budget tashkilotlari uchun yakuniy hisob-kitob kelgusi oyning 30 kunigacha amalga oshiriladi).

Uzil-kesil hisob-kitob belgilangan muddatda amalga oshirilmagan taqdirda, «**Ta'minotchi**» tomonidan hisob-kitob oyida haqiqatan yetkazib berilgan gaz hajmi summasiga xizmat ko'rsatuvchi bank orqali «**Iste'molchi**»ga to'lov talabnomalari beriladi.

Agarda to'lov talabnomalari «**Iste'molchi**» aybi bilan talabnomma berilgan kundan boshlab 3 bank kuni mobaynida bajarilmasa, «**Iste'molchi**»ga gaz yetkazib berish to'xtatiladi.

3.4. Tabiy gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilikka asosan belgilanadi.

3.5. Agarda «**Istemolchi**»ning aybi bilan shartnomada ko'rsatilgan gaz hajmi to'liq iste'mol qilinmagan bo'lsa, «**Iste'molchi**» tomonidan avans shaklida to'langan pul mablag'i iste'mol qilinmag'an gaz uchun qaytarilmaydi, balki u kelgusi oyning hisobiga kiritiladi.

«**Iste'molchi**»ning tabiy gaz uchun muddati o'tib ketgan qarzdorligi mavjud bo'lganda uning tomonidan avans to'lovi sifatida o'tkazilgan mablag'lar muddati o'tib ketgan qarzni qoplashga yo'naltiriladi, hamda avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

3.6. «**Iste'molchi**» yoki «**Ta'minotchi**» ning to'lov rekvizitlari o'zgarganida ular bir-birlariga darhol xabar berishlari kerak.

3.7. Sanoat va kommunal-maishiy korxonalar (budget tashkilotlaridan tashqari) olingan gaz miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni joriy yilning 28 kunidan 30-31 kunigacha, gaz bosimi va harorati bo'yicha tuzatish kirituvchi (blok korreksii)si mavjud bo'lgan elektron gaz hisoblagichga ega korxonalar esa keyingi oyning besh kun mobaynida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan gazni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida ta'minotchiga taqdim etadi. Hisob – kitob oyning 10 kunigacha to'liq amalga oshiriladi.

Agar uzil-kesil hisob-kitob belgilangan muddatda amalga oshirilmagan taqdirda gaz bilan ta'minlovchi tashkilot va hududiy gaz bilan ta'minlovchi korxonalar gazni qabul qilish –topshirish dalolatnomalari asosida, xizmat ko'rsatuvchi banklar orqali, o'tkazilgan to'lovlar summasini chiqarib tashlagan holda, hisob kitob oyida yetkazib berilgan gaz qiymati summasiga to'lov talabnomalari beriladi.

"Taminotchi" tomonidan yetkazib berilgan tabiy gazning aniqlangan miqdoriga norozi bo'lgan "Iste'molchi" 10 kun ichida "Taminotchiga" o'z noroziligi haqida murojaat qiladi. 10 kun muddat o'tganidan so'ng, «**Iste'molchi**» tomonidan qilingan e'tirozlar qabul qilinmaydi.

### **4. TABIIY GAZ ETKAZIB BERISH VA UNI QABUL QILISH TARTIBI.**

4.1. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar shartnomada shartlari va qonun xujjalari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar taraflar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnomada bajarilgan deb xisoblanadi.

4.2. «**Iste'molchi**» joriy yilning 15 iyul kunidan kechiktirmay kelgusi yilda iste'mol qilinadigan gaz uchun «**Ta'minotchi**» ga o'rnatilgan tartibda buyurtma berishi shart. Buyurtmada tabiiy gaz iste'molining choraklar bo'yicha miqdori aks ettirilishi kerak. Zarur holatlarda buyurtmadagi gaz hajmiga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish mumkin va ularni joriy yilning 1 sentyabr kunigacha taqdim qilish kerak.

4.3. Tabiiy gaz yetkazib berish shartnomada yoki shartnomada asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlarda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalgalash oshiriladi.

4.4. «**Iste'molchi**» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoki undagi tabiiy gazni yetkazib berish miqdori va sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda «**Ta'minotchi**»ni buyurtmanomada ko'rsatilgan oy (chorak) boshlanishidan kamida 10(o'n) kun oldin xabardor qiladi.

4.5. “**Ta'minotchi**” Tabiiy gaz qabul qilish va berish tartibining o'zgarganligi (magistral gaz quvurlari, gaz tarmoqlari, gaz kirish qismining avariya chegaralash tugunlarida sodir bo'lgan nosozliklar va boshqa holatlari) to'g'risidagi ma'lumotlar tug'risida “**Iste'molchi**”ni dispatcherlik aloqa kanallari orqali xabardor qilishlari shart.

«**Iste'molchi**» gaz xo'jaligi tezkor boshqarmasining telefonlari:-

«**Ta'minotchi**»ning manzili:Ibn sino ko'chasi tel:35-31-400

4.6. «**Ta'minotchi**» gaz berish qisqartirilganligi to'g'risidagi xabarni «**Iste'molchi**»ga gaz qisqartirilishiga qadar kamida 6 soat oldin yetkazishi kerak. Magistral gaz quvurlarida sodir bo'lgan avariya holatlari bundan mustasno.

4.7. Qish mavsumida, hamda magistral gaz quvurlari ishining texnologik tartibi buzilganida «**Ta'minotchi**» gaz berishni chegaralaydi «**Iste'molchi**» qo'shimcha zahira-yoqilg'i turiga o'tkazish jadvallarini ishga tushiradi. (26.05.2005y. 132son Karor)

## **5. TABIIY GAZ ETKAZIB BERISHNI TO'XTATISH VA UZIB QO'YISH TARTIBI.**

5.1. Quyidagi holatlarda «**Ta'minotchi**» «**Iste'molchi**» ga gaz berishni to'xtatadi:  
«**Iste'molchi**» shartnomada kelishilgan hajmdan ortiq gaz olsa;  
gaz tarmoqlariga o'zboshimcha ravishda qo'shimcha gaz uskunalari ulab olingen bo'lsa;  
muddati o'tgan debtorlik qarzdorliklari mayjud bo'lsa;  
gaz olish qoidalari qo'pol ravishda buzilganida;

buyurtma bergen gaz hajmi uchun oldindan to'lov (avans) to'lanmagan bo'lsa;

5.2. Muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega bo'lgan gaz iste'molchilarini gaz yetkazib berish tarmoqlaridan uzib qo'yish va ularni gaz tarmog'iga qayta ulash harajatlari «**Iste'molchi**» hisobiga qoplanadi.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 5 fevraldagagi 57-son Qarorining 5-ilovasida ko'rsatilgan korxonalarga haqi tulanmaganligi uchun tabiiy gaz berishni qisqartirish belgilangan tartibda energiya bilan ta'minlashning texnologik va avariya bronni darajasigacha, tabiiy gaz berishni to'liq uzib qo'yish esa – faqat sud qaroriga binoan amalgalash oshirilishi mumkin.

## **6. TARAFLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.**

6.1. Etkazib berilgan tabiiy gaz sifati shartnomada yoki qonun hujjalari belgilangan shartlarga mos kelmasa, «**Iste'molchi**» tabiiy gazni qabul qilish, hamda uning haqini to'lashni rad etib, «**Ta'minotchi**»dan sifati va miqdori lozim darajada bo'lmasagan tabiiy gaz qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tabiiy gaz haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni «**Ta'minotchi**»dan talab qilishga haqlidir.

6.2. Tabiiy gaz yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan hollarda Ta'minotchi «**Iste'molchi**»ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilmagan tabiiy gaz qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Majburiyatlar fors-major holatlari oqibatida bajarilmagan bo'lsa, «**Ta'minotchi**» jarima (penya) to'lashdan ozod qilinadi.

6.3. «**Iste'molchi**» gaz haqini o'z vaqtida to'lamasa, keyingi oyning 11 kunidan boshlab kechikkan har bir kun uchun muddati o'tgan to'loving 0,4 foizi hisobida jarima (penya) to'laydi. Biroq, jarima miqdori muddati o'tgan to'loving 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

6.4. «**Iste'molchi**» gaz iste'mol qiluvchi qurilmalarni o'zboshimcha ravishda, «**Ta'minotchi**» bilan kelishmagan holda gaz tarmog'iga ulab olgan bo'lsa, unga nisbatan o'rnatilgan gaz asboblarining 24 soatlik ish tartibida ishlaydigan to'liq quvvatining 2 baravar hisobida foydalanilgan gaz uchun haqni «**Ta'minotchi**»ga to'laydi, shuningdek «**Iste'molchi**»ning gaz iste'mol qiluvchi qurilmalari gaz ta'minoti tizimidan uzib qo'yiladi.

6.5. Agarda, gaz hisoblash asboblarining, shuningdek gaz iste'mol qiluvchi boshqa agregatlarga o'rnatilgan plombalar o'zboshimcha ravishda uzilganligi aniqlansa, «**Iste'molchi**» o'rnatilgan gaz uskunalarining 24 soatlik ish tartibidagi quvvati bo'yicha «**Ta'minotchi**» vakilining oxirgi marta kelgan paytidan boshlab 2 baravar hisoblangan gaz haqini «**Ta'minotchi**»ga to'laydi.

6.6. Shartnomaviy majburiyatlar bajarilmasa, tomonlar O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy negizi to'g'risida» gi Qonuniga binoan javob beradilar.

## 7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, taraflar qoidaga ko'ra ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar. Taraflar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

7.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

## 8. FORS-MAJOR.

8.1. Tomonlar quyidagi holatlarda gaz berish va qabul qilishni to'xtatish yoki kamaytirishga haqlidirlar va buning uchun javobgarlikka tortilmaydilar:

- a) tabiiy ofatlarda;
- b) gaz konlarida, gazni qayta ishslash korxonalarida, magistral gaz quvurlarida, gaz tarmoqlarida kutilmagan avariylar sodir bo'lganida.

8.2. Bunday holatlar sodir bo'lganida tomonlar bir-birlarini har qanday aloqa vositalari yordamida xabardor qilishlari kerak.

8.3. Agarda, bu holatlar 90 kundan ortiq davom etsa, tomonlar kelgusida shartnomani bajarish, masalasini muzokara yo'li bilan hal qiladilar.

## 9. ShARTNOMANING AMAL QILISHI.

9.1. Mazkur shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish taraflar shartnomani\* imzolagan paytdan keyin bajarilishi kerak.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda sodir etilishi va taraflarning bunga lozim darajada ma'sul bo'lgan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi. (Budget tashkilotlari uchun G'aznachilik bo'linmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagagi 594-sonli qaroriga muvofiq, majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi).

9.3. Shartnoma 1 yil muddatga tuzilgan bo'lib, muddati tugagach, taraflardan biri uni bekor qilish yoki o'zgartirish haqida murojaat qilmasa, shartnoma keyingi yil uchun uzaytirilgan hisoblanadi. (Budgetdan mablag' oluvchilar uchun 2009 yil 16 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007-sodan ro'yxatga olingan "Davlat budgetining g'azna ijrosi Qoidalari"ga asosan amal qilish muddati «31» dekabr 2022 yilgacha belgilanadi).

Shartnoma yangi muddatga uzaytirilganda, ularning shartlari taraflar kelishuviga binoan o'zgartirilishi mumkin.

9.4. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

9.5. Tomonlar o'rtasidagi har qanday bahslar, agarda o'zaro bitimga kelinmasa, javobgar manzili tomonidagi xo'jalik sudi tomonidan hal qilinadi. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha e'tirozlar, e'tiroz tushgan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

## 10. YAKUNIY QOIDALAR.

10.1 Mazkur shartnoma taraflarning kelushivuga ko'ra yoki boshqa taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, taraflardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2.Mazkur shartnomaga ikki nusxada tuzilib, taraflarning har biriga bir nusxadan qoldiriladi.  
Shartnomaning har ikkala nusxasi teng yuridik kuchga ega.

## 11.Kushimchalar va ilovalar

### 12. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

«Ijrochi»  
"HUDUDGAZTA'MINOT" AJ

Manzil: Ibn sino №29 kuchasi  
Tel./faks: 353-14-00  
x/r: 22634000805113960327

MFO: 00435STIR: 306605769  
OKONX: 90214

Raxbar:  F.Xaydarov

«Buyurtmachi»  
Peshku tuman Davlat solikinspeksiysi  
Manzil: Peshku tuman ,Amur Temur kuchasi 2A uy  
Tel./faks: 353-29-91

sh/hv: 100010860062407011332093001

STIR: 200883542  
bank nomi: ATB"Agrobank" Peshku filiali  
OKONX: 84119

G'aznachilik bulinmasi nomi:Peshku  
tumani buyicha G'aznachilik bulinmasi  
G'azna h/v: 23402000300100001010  
Bankning nomi:Toshkent shaxar Markaziy bank  
MFO: 00014  
G'aznachilik bulinmasi STIRi: 201122919

Raxbar:  A.Kamolov

*B. Buxurov* *F. Xaydarov* *T. Dzopova*

"25" yanvar 2022y

- sonli shartnomaga  
llova

## Foydalanishga qabul qilingan va gaz yoqilg‘isiga o‘tkazilgan aggregatlar taysifi

"Ta'minotchi"

## "HUDUDGAZTA MINOT" AJ

Raxbari F,Xaydarov



Barbour 102 E. K. 1

Raxbari ~~✓~~ F,Xaydarov

## "Iste'molchi"

Peshku tumani Davlat solik inspeksiyasi

Raxbari

A.Kamolov



Документы об Т.Воробе